

NUTQIY AKTLARNING SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI (ERKIN A'ZAM ASARLARI MISOLIDA)

Elomonova O'g'iloy Vakiljon qizi
*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: ushbu maqolada pragmatikaning tayanch tushunchalaridan biri bo'lgan nutqiy aktlar xususida mulohaza yuritilgan. Ilmiy-nazariy qarashlarni asoslashda yozuvchi Erkin A'zamning asarlariga murojaat qilingan. Nutqiy aktlar turlari va ularning sotsiopragmatik tahliliga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, lokutiv akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, tanbeh nutqiy akti, maqtov nutqiy akti, ironiya nutqiy akti, haqorat nutqiy akti.

СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧЕВЫХ АКТОВ (НА ПРИМЕРЕ РАБОТ ЭРКИНА АЗАМА)

Аннотация: в этой статье рассматриваются речевые акты, которые являются одним из основных понятий прагматики. При обосновании научно-теоретических взглядов обращался к трудам писателя Эркина Азама. Основное внимание уделяется видам речевых актов и их социопрагматическому анализу.

Ключевые слова: речевой акт, локативный акт, иллокутивный акт, перлокутивный акт, выговор речевой акт, похвальный речевой акт, ирония речевой акт, оскорбление речевой акт.

SOCIOPRAGMATIC FEATURES OF SPEECH ACTS (ON THE EXAMPLE OF THE WORKS OF ERKIN AZAM)

Annotation: this article reflects on colloquial acts, one of the fundamental concepts of pragmatics. In the justification of scientific and theoretical views, the works of the writer Erkin Azam are referenced. Focused on the types of speech acts and their sociopragmatic analysis.

Keywords: speech act, lokutiv act, illokutiv act, perlokutiv act, reprimand speech act, speech act of praise, ironic speech act, insult speech act.

Nutqiy akt pragmatikaning tayanch tushunchalaridan biri bo'lib, muloqot jarayonida kishilarning til birliklaridan aniq maqsadni ko'zlagan holda foydalanishi, nutqiy harakatini anglatadi. Insonning o'z fikrini ifoda etishi, boshqalar bilan muloqotga kirishishi yoki o'z niyatini amalga oshirishda til vositalaridan foydalanishi nutqiy aktlar orqali ro'yobga chiqadi. Nutqiy aktning asosiy vazifasi muloqot davomida aytilayotgan gapning nafaqat mazmunini, balki uning maqsadi va ijro funksiyasini aniqlashdir. Ushbu jarayon o'z ichiga

kommunikativ kontekstni, aytuvchining niyatini va tinglovchining reaksiyasini qamrab oladi. Demak, nutqiy aktlar insonlar o‘rtasidagi muloqotning nafaqat mazmuniy, balki ijtimoiy va psixologik jihatlarini ham tahlil qilishga imkon beradi. Shu sababli, nutqiy aktlarni o‘rganish muloqot samaradorligini oshirishda, pragmatik tahlillarni chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, badiiy asarlarda til vositalarining mantiqiy, psixologik va ijtimoiy jihatlarini o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Yozuvchi Erkin A‘zamning ba‘zi hikoya va qissalari misolida nutqiy aktlarning ifodalanishi va ularning pragmatik tahlili, adabiyot va til o‘zaro bog‘liqligi masalalariga to‘xtalib o‘tamiz. Bu esa badiiy matnning pragmatik qirralarini, ya‘ni muallifning o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan maqsadi va qahramonlar nutqining funktsional vazifalarini aniqlashga imkon beradi.

“Nutqiy akt – ma‘lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma‘nosining so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan “boyitilishi”, idrok etilishi natijasidir” [Caфapов, 2008: 72-73]. Nutqning qanday vaziyatda yuzaga chiqishi, nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat so‘zlovchi fikrlarining ifodalanish shakliga, ya‘ni eksplitsit yoki implitsit tarzda berilishiga ta‘sir qiladi. So‘zlovchi nutqiy faoliyati natijasida turli mazmundagi nutqiy aktlar yuzaga chiqadi. Bunda so‘zlovchi tomonidan tanlangan so‘zlar o‘z ma‘nosidan boshqa ma‘noda ham ifodalanishi mumkin.

Nutqiy akt nazariyasi lingvistik pragmatikaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. U haqidagi dastlabki qarashlar, asosan, J.L.Ostin va J.Syorl kabi tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, kommunikativ jarayonlarda tilning roli va uning bajaradigan funksiyalarini o‘rganishga qaratilgan. Bundan tashqari V.Gumboldt, Sh.Balli, L.P.Yakubinskiy, M.M.Baxtin qarashlarida ham nutqiy akt muammolariga oid ma‘lumotlar uchraydi. Nutqiy akt o‘ziga xos tuzilish bosqichlari va me‘zonlariga ega. Nutqiy aktlar uch xil tarkibiy qismga ega:

1. Lokutiv akt – gapning ma‘nosi va grammatik qurilishi, fikrning obyektiv mazmuni. Bunday nutqiy aktlar suhbatdosh tomonidan reaksiya talab qilmaydi.

2. Illokutiv akt – gap orqali bajarilayotgan maqsad (buyruq berish, so‘rash, maslahat berish va boshqalar), ya‘ni lokutiv aktning ma‘lum mo‘ljali bilan yo‘naltirilishi.

3. Perlokutiv akt – nutqning tinglovchi ongi, his-tuyg‘ulari va xulqiga ta‘siri. [Пардаев, 2012: 73]

Bundan tashqari o‘zbek tilida axborot, maslahat, nasihat, ishontirish, ogohlantirish, rag‘batlantirish, tanbeh, tahdid, haqorat, qo‘rqitish kabi ko‘plab nutqiy aktlar ham mavjud bo‘lib, quyida biz ularni Erkin A‘zamning ayrim asarlari asosida ko‘rib chiqamiz. Erkin A‘zam asarlarida mazkur nutqiy aktlar o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘lib, asar qahramonlarining ichki kechinmalarini va ijtimoiy munosabatlarini chuqur yoritadi.

Tanbeh nutqiy akti so‘zlovchi yoki tinglovchining nutq vaziyatidagi holati va his-tuyg‘ularini ifodalash imkoniyati bilan ajralib turadi. U kommunikativ niyatlarning lingvistik amalga oshirilishi natijasida shakllanadigan umumiy ma‘nolardan biri hisoblanadi. Tanbeh ko‘pincha adresatga nisbatan ma‘qul topmaslik, ayblash, koyish,

ogohlantirish, haqorat qilish, urishish yoki biror kamchilik va xatoni qayd etish kabi salbiy baho ma’nolarini ifodalaydi. Bunday aktlarning semantik tuzilishi murakkab bo‘lib, tanbeh mazmunini ifodalashda amalga oshmay qolgan ijobiy vaziyat ham muhim ahamiyat kasb etadi. So‘zlovchining kommunikativ niyati esa bu vaziyatda ochiq (eksplitsit) yoki yashirin (implitsit) tarzda namoyon bo‘lishi mumkin.

– *Ko‘rdingizmi? – deb so‘radi hamkasbi quvnoq hayqirib.*

– *Nimani?*

– *Kimni deng! Go‘zalni-da, go‘zalni?*

– *Qanaqa go‘zal?*

– **Obbo!** *Sizni bir jonon qidirib kelgan edi.*

– **Boshni qotirmang!**

– *Boshingizni qotirishga vaqtim yo‘q, birodar, bor gapni aytyapman.*

– *Bo‘pti, xushxabaringizdan baxtiyorman. (“Олам ям-яшил” хикоясидан, 176 б.)*

Ushbu misolda “obbo” so‘zi yengilgina koyinish ma’nosida ishlatilgan bo‘lib, diskursdagi emotsiona-ekspressivlikni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. Boshni qotirmoq iborasi bo‘lar-bo‘lmas ish, harakat va shu kabi ma’nolarda qo‘llanilib, bu misolda vaziyatdan norozilik, koyinish, ma’qullamaslik ma’nosidagi tanbeh sifatida qo‘llangan.

Tanbeh tinglovchiga to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘naltirilganda salbiy munosabat ifodalashga xizmat qiluvchi leksemalar faol qo‘llaniladi:

Shu payt ichki telefon jiringladi.

– *O‘zingmisan, Don Juan? – deya xushchaqchaq gap boshladi birga o‘qigan og‘aynisi. –*

Farishtaman, deb yurib chatoq chiqding, sen bola! (koyimoq, ayblamoq tipidagi tanbeh bo‘lib, so‘zlovchi tinglovchining xarakter xususiyatidan kelib chiqqan holda ifodalangan) *Umrin bino bo‘lib bunaqasini uchratmaganman. “Bunday go‘zal kelmagay hech dunyoga!” U qaddi-qomat-u husni-malohatni! Muomalaning mayinligini ayting. Xullas, ta’rifga so‘z o‘jiz. Afsonalardagi parizodning o‘zginasi-ya! Duelga chaqirmoqchi bo‘lib o‘tiribman seni. Voy pismi-ey, (inson fe’l-atvoridan kelib chiqib ifodalangan, tinglovchiga yo‘naltirilgan tanbeh leksema. Bu yerda undalmaning o‘z undov so‘zi bilan birgalikda qo‘llanilishi tanbeh ma’nosining yanada ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan) indamay yurganingda gap bor ekan-da. (“Олам ям-яшил” хикоясидан, 177 б.)*

Maqtoiv nutqiy akti – bu biror shaxs, narsa, hodisa yoki voqea haqida aytilgan yoki yozilgan yaxshi fikr bo‘lib, ma’qullash va ijobiy baholashning nutqiy ifodasidir. Maqtoivning asosiy maqsadi so‘zlovchining nutq obyekti haqidagi ijobiy fikrini ifodalash va shu bilan bog‘liq yoki nutq jarayonida yuzaga keladigan ruhiy holatlarni namoyon etishdan iboratdir. Maqtoiv orqali so‘zlovchi o‘z bahosiga ko‘ra ideal yoki ma’qul deb topilgan jihatlarni ta’kidlab, nutq qaratilgan obyektning ijobiy sifatlarini ifodalaydi.

Tursuniy: Rahmatjon aka, bular bilan, yangamullomiz bilan-da, qanaqa tanishsiz o‘zi?

Jiydaliy (zavq bilan): E, buning tarixi qiziq, ukajon! Bilasiz, Amerikadan chiqqan tayyora gohida Istanbulda bir-ikki soat to‘xtab, so‘ngra bu yoqqa qarab uchadi. Bular –

ikki dugona tijorat qilgani borgan ekanlar. Tayyorada uchovlon bir joyda o‘tirib qoldik deng! Bo‘stonoy degich sheriklari bor ekan. **E, alomat! Balo, balo! Turkon Xotun-a deysiz!** (shaxsning xulq-atvoridan kelib chiqib ifodalangan maqtov bo‘lib, so‘z takrori mazmunni yanada kuchaytirib, emotsional-ekspressivlikni oshirishga xizmat qilgan) Gapdan gap chiqib, yangamullomiz mening Jiydaliy ekanimni bildilar-u apoq-chapoq topishdik-qoldik. O‘zlariyam aslida o‘sha yoqdan ekanlar-da. Mana, endi qiyomatli opa-ukamiz, qarang! **Ko‘p uddaburon, fazilatli ayol, baraka topsinlar!** (insonning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini jihatidan yuzaga kelgan maqtov) Voqean, domullomizning o‘zlariyam Jiydalidan bo‘ladilar, bilasiz-a? Shu hisobda biz bu xonadon bilan hamvatan, hamyurt, qarindoshday bir gap... Domullomizning ham yurtini ziyorat qilmaganlariga ko‘p zamon bo‘libdi. Man-ku bir musofir-u muhojir, bu kishi nega tug‘ilgan vatanlariga bormadilar ekan... Ikkovlashib bir o‘tib kelamiz deb va‘dalashib qo‘yganmiz hali, Xudo xohlasa! (“Жаннат ўзи қайдадир” қиссасидан, 83 б.)

Yuqoridagi misolda shaxsning ma‘naviy-axloqiy xususiyatlaridan kelib chiqib maqtov akti ifodalangan bo‘lsa, quyidagi namunada insonning tashqi ko‘rinishi va ijtimoiy mavqeyi nuqtayi nazaridan ifodalangan maqtov akti yuzaga kelgan.

Dildora Jo‘rayevna – fransuz tili muallimimiz; men bilan qariyb tengqur, nari borsa, bir yosh, yarim yosh kattadir. **O‘zi ham fransuz filmlaridagi kinoyulduzlarga o‘xshaydi.** (insonning tashqi ko‘rinishidan kelib chiqib ifodalangan maqtov) Dars payti hammamiz uning og‘zidan chiqayotgan so‘zlarga emas, husniga mahliyo bo‘lib o‘tiramiz. Buni sezsa ham bilmaganga oladi. Umuman uning hali biror marta jilmayganini ko‘rgan emasmiz – doim to‘qson yashar kampirdek qovog‘ini osiltirib yuradi. **Shunday yosh, shunday go‘zal qiz** (yosh va jins nuqtayi nazaridan kelib chiqib ifodalangan maqtov)... jilmayishni bilmaydi. (“Отойининг туғилган йили” қиссасидан, 45 б.)

Haqorat nutqiy akti – tanqid, ko‘rolmaslik, qo‘pollik, tahdid kabi turli ma‘nolarni o‘zida mujassamlashtiruvchi, tinglovchini obro‘sizlantirish va so‘kishga qaratilgan nutqiy akt hisoblanadi. Haqorat nutqiy akti asosan dialogik nutq uchun xos bo‘lib, uning asosida so‘zlovchining adresat faoliyatidan qoniqmaslik ma‘nosi yotadi. Kishining or-nomusi, shaxsiyatini pastga uradigan, tahqirlovchi ma‘no-mazmunli so‘z, gap [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2020: 521]. Boshqacha aytganda, haqorat – ma‘qullamaslik bahosining qo‘pol shaklda ifodalanishidir.

Xonim (zarda bilan): Amma! **Quloqlaring tom bitganmi, nima balo?** (qulog‘i tom bitmoq – eshitmaydigan, payqamaydigan bo‘lib qolmoq. Bu ibora orqali adresant adresatning faoliyatidan qoniqmayotganli, uning harakatini ma‘qullamayotganligi ifodalangan haqorat)

Asal xola: Ha, ha, xonimjon? Men bu yoqda ekanman-da.

Xonim (ensasi qotib): “Xonimjon, xonimjon”! Men sizning xotiningiz emasman-ku, amma! Necha yildan beri aytaman-a: Roza Hasanovna, tamom!

Asal xola (tusi o‘zgarib): Hay, nima farqi bor? Xo‘p, ana — Ro‘za Hasan...

Xonim (ijirg‘anib): **Zahar xola!** (bu yerda so‘zlovchining yoshi tinglovchiga nisbatan kichik bo‘lishiga qaramay, mavqeyi nuqtayi nazaridan kelib chiqib ishlatilgan haqorat

so‘z. Bunda adresatning faoliyatidan qoniqmaslik ma’nosi ifoda etilgan) *Domla qanilar deyapman?* (“Жаннат ўзи қайдадир” қиссасидан, 73 б.)

Tilda illokutiv aktning amalga oshishida hissiy-ekspressivlikni ta’minlovchi vositalar ko‘p bo‘lib, ulardan biri ironiyadir. “Ironiya – grekcha eironeia (bilib bilmaganga olish) so‘zidan olingan. Ba’zan muallif voqeani bemalol, jiddiy tarzda hikoya qiladi-yu, ammo so‘zlarni o‘z asl ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda qo‘llab, biror kishi yoki hodisa ustidan kesatq bilan, masxaraomuz yashirin kuladi. So‘zlar va iboralarning kesatq va piching bilan o‘z ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda ishlatilishi ironiya (kinoya) usuli deb ataladi” [Шомақсудов ва бошқ., 1983: 241].

Domla (birdan bo‘shashib, mung‘ayib): Hay, bir gapi bo‘lar. O‘ylab ko‘raylik-chi... Darvoqe, akademiya saylov e‘lon qilinar-mish, xabaringiz bordir?

Tursuniy (jonlanib): Rostdanmi? Eshitmagan ekanman-ku hali. Bir kalla qilib ko‘ramizmi yana? Mana, bu yoqda biz turibmiz!

Domla: Siz?!

Tursuniy: Yugur-yuguriga-da! Busiz bitarmidi unaqa ishlar?!

Domla (ermakka kirishib): Men nima qilishim kerak bo‘ladi unda, xo‘sh?

(bunda masxara ohangida adresat fikrlari yengil kinoya bilan baholangan)

Tursuniy: Uch-to‘rtta dolzarbroq maqola yozasiz, tamom!

Domla: Maqola?! Qanaqa maqola? Nega?

Tursuniy: Mustaqillik haqida-da, domla!

Domla (oshkora masxaraga o‘tib): Xo‘p, mayli. Nima deb yozamiz, qani? (bu misolda esa endi so‘zlovchi adresatni oshkoralik bilan yengil kulgiga asoslangan holda kesatgan)

Tursuniy: Ustimdan kulayapsiz-a, domla? O‘zingiz bilasiz-ku hammasini! Mana, masalan: “Ajoyib zamonda yashamoqdamiz. Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz...” Va hokazo. (“Жаннат ўзи қайдадир” қиссасидан, 76-б)

Erkin A’zam asarlarida nutqiy aktlar har biri o‘z vazifasini bajarib, asarlarni estetik jihatdan boyitadi. Qahramonlarning nutqi orqali ularning ichki dunyosi, jamiyatdagi o‘rni va ruhiy holatlari tasvirlanadi. Ushbu asarlardagi nutqiy aktlar tahlili badiiy asarlarni pragmatik aspektida o‘rganish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. Бир йил битиклари. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2007. – 128 б.

2. Аъзам Э. Отойининг туғилган йили: Қисса ва хикоялар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 184 б.

3. Imamkulovich, O. B. (2023). Methodological and Pragmatic Factors That Ensure the Effectiveness of Communication. *International Journal of Social Science Research and Review*, 6(8), 87-93.

4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 318 б.
5. Пардаев З. Прагматик тилшунослик. Ўқув-услубий қўлланма. – Самарқанд, 2012. – 88 б.
6. Пардаев З. Ўзбек тилида баҳо категорияси монография. – Самарқанд, 2012. – 141 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Биринчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2020. – 680 б.
8. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.